




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

Surxondaryo viloyatida
kichik tadbirkorlik
2021- yil yanvar-sentabr


Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, % da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining YAHMdagi ulushi **78,1** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **12,0** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-sentabrida **4,2** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **34,2** foizga kam demakdir.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **1411** ta, sanoatda **984** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **733** ta, qurilishda **356** ta, yashash va ovqatlanishda **235** ta, axborot va aloqada **51** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

97,1



Sanoat

48,4



Qurilish

86,7



Investitsiya

49,0



Savdo

93,7



Xizmatlar

66,3



Eksport

52,0



Import

90,6



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

24 572




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

4 211

2021- yilning yanvar-sentabrda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2021- yil yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

33,1%



Sanoat

18,9%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

15,0%



Qurilish

11,4%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

7,0%



Tashish va saqlash

3,3%



Axborot va aloqa

1,3%




Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,5%



Boshqa faoliyat turlari


8,5%



2019- y. 2020- y. 2021- y.

Yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2020- y.

■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar




Shahar va tumanlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2021- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Termiz shahri – 20,5 %, Denov - 11,2 %, Sherobod - 7,8 %, Jarqo'rg'on - 8,8 %, Sho'rchi - 7,9 %, Qumqo'rg'on - 6,5 % va Termiz - 6,5 % hissalariga to'g'ri keldi.





Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Ma'lumot uchun: 2021- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda
1141 ta

Sanoatda
984 ta

Qishloq,
o'rmon va
baliqchilik
xo'jaligida
733 ta

Qurilishda
356 ta

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2021- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 12,0 birlikni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - sentabr holatiga ko'ra*

2019- y.

8,1

2020- y.


10,5

2021- y.

12,0

2021- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*

2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahrida 25,2 birlik, Termiz tumanida 25,2 birlik, Qiziriq tumanida 14,8 birlik, Boysun tumanida 13,4 birlik, Sherobod tumanida 12,4 birlikni tashkil etgan.



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida




Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2021- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra*

Eng yuqori ko'rsatkich
Termiz shahar va Termiz tumani
- 25,2 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich
Jarqo'rg'on tumani
- 10,5 birlik.

Past ko'rsatkich
Sariosiyo tumani
- 8,5 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi




2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 78,1 %ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-sentabrida 78,0 %).

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 74,7 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 52,0 % ini tashkil etdi.



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi


2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bandixon tumanida - 100,0%, Boysun tumanida - 100,0 %, Muzrabot tumanida - 100,0 %, Oltinsoy tumanida - 100,0 %, Uzun tumanida - 100,0 %, Qiziriq va Qumqo'rg'on tumanlarida - 100,0 % ni, eng past ko'rsatkich Sherobod tumanida - 8,5 % ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **147,8** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **90,6 %** ini tashkil etdi.



2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Qiziriq - 100,0 %, Uzun - 100,0 %, Oltinsoy - 100,0 %, Muzrabot - 100,0 %, Boysun - 100,0 %. Eng past ko'rsatkich Sariosiyo tumanida - 30,4 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2286,4** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (512,5 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (251,6 mlrd. so'm), Denov (248,4 mlrd. so'm), Sho'rchi (192,6 mlrd. so'm) va Sariosiyo (165,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Bandixon tumanida (16,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2021- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **48,4 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon (100,0 %), Muzrabot (100,0 %), Oltinsoy (100,0 %), Uzun (100,0 %), Qiziriq (99,8 %), Boysun (94,2 %), Denov (64,0 %) va Angor (61,3 %) tashkil etdi. Sherobod tumanida (24,6 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **9535,8** mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,7 %** ini tashkil etib. 2020- yil yanvar - sentabr oylariga nisbatan **11,8 %** ga oshgamligi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Denov tumani (2280,1 mlrd. soʻm), Termiz shahri (1768,1 mlrd. soʻm), Shoʻrchi (850,7 mlrd. soʻm), Sherobod (546,3 mlrd. soʻm), Jarqoʻrgʻon (526,8 mlrd. soʻm) va Angor (443,9 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.



■ hajm, mlrd. soʻm

● oʻsish surʻati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi



2020- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3513,3** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **86,7 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar - sentabr oylariga nisbatan **109,9 %** ni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (973,2 mlrd. so'm), Termiz (417,6 mlrd. so'm), Denov (272,9 mlrd. so'm), Muzrabot (271,0 mlrd. so'm), Sherobod (231,5 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (229,8 mlrd. so'm) va Boysun (214,2 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.



■ hajm, mlrd. so'm

○ o'sish sur'ati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4834,8** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,3 %** ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2020- yil yanvar - sentabr oylariga nisbatan **116,6 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Termiz shahri (881,5 mlrd. soʻm), Denov (589,8 mlrd. soʻm), Jarqoʻrgʻon (326,3 mlrd. soʻm), Sariosiyo (312,8 mlrd. soʻm), Sherobod (305,5 mlrd. soʻm), Qumqoʻrgʻon (299,2 mlrd. soʻm) va Shoʻrchi (296,4 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 78,6 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 108,0 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 92,0 % ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 107,6 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,2 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,7 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,7 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil qildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1050** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 277 (26,4 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 689 (65,6 %) ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 84 (8,0 %) ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 7,2 % (76 ta), sanoatda - 16,6 % (174 ta), qurilishda - 12,5 % (131 ta), savdoda - 39,6 % (416 ta), xizmatlar sohasida - 24,1 % (253 ta) ni tashkil etdi.

2021- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (167 ta), Denov (136 ta), Jarqo'rg'on (82 ta), Qumqo'rg'on (75 ta), Sho'rchi (74 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilish 30,5 %ni, savdoda 28,6 %ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 27,6 %ni va sanoatda 24,1 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 71,6 %ni, savdoda 65,6 %ni va sanoatda 65,6 %ni tashkil etdi.

2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 56,5 %ni, savdo sohasida 55,0 %ni, sanoatda 52,9 %ni, tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 47,0 %ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 44,8 %ni, savdoda 42,4 %ni tashkil etdi.

